



PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF GENERAL MYSTIC VIEWS IN THE RESEARCH OF Y.E. BERTELS

Maruf Govsiddinov

PhD, Senior Lecturer

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: marufgovsiddinov@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Bertels, Jami, Sufism, al-Arabi, teachings, Naqshbandi, sheikh, aesthetics, morality, fiction, ethics, ontology.

Received: 05.06.25

Accepted: 07.06.25

Published: 09.06.25

Abstract: The article analyzes the philosophical views of the great thinker Abdurahman Jami on the science of Sufism, based on the research of orientalist scholar Y.E. Bertels. At the same time, the article reveals the specific features and stages of development of the philosophy of Sufism that developed in the Middle Ages.

Y.E.BERTELS TADQIQOTLARIDA JOMIY TASAVVUFİY QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI

Ma'ruf G'ovsiddinov

PhD, katta o'qituvchi

Samarqand davlat chet tillari instituti

Samarqand, O'zbekiston

E-mail: marufgovsiddinov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Bertels, Jomiy, tasavvuf, al-Arabi, ta'limot, naqshbandiya, shayx, estetika, axloq, badiiy adabiyot, etika, ontologiya.

Annotatsiya: Maqolada sharqshunos olim Y.E.Bertels tadqiqotlarida buyuk mutafakkir olim Abdurahmon Jomiyning tasavvuf ilmiga oid falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada o'rta asrlarda rivoj topgan tasavvuf falsafasining o'ziga xos xususiyatlari rivojlanish bosqichlari ochib berilgan.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩИХ МИСТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ В ИССЛЕДОВАНИЯХ Е.Э. БЕРТЕЛЬСА

Маруф Говсидинов

PhD, старший преподаватель

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Самарканд, Ўзбекистан

E-mail: marufgovsiddinov@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бертельс, Джами, суфизм, аль-Араби, учения, Накшбанди, шейх, эстетика, мораль, художественная литература, этика, онтология.

Аннотация: В статье анализируются философские взгляды великого мыслителя Абдурахмана Джоми на науку суфизма, основанные на исследованиях ученого-востоковеда Е.Э. Бертельса. При этом в статье раскрываются специфические черты и этапы развития философии суфизма, сложившейся в средние века.

Kirish. Jomiy bu yo‘nalishda taniqli shayx Sa‘diddin Koshg‘ariy rahbarligidagi naqshbandiylik tariqatiga qo‘shiladi. Y.E.Bertelsning fikricha, Jomiy ushbu shayxning qo‘lida uning vafotiga qadar ta‘lim oladi. Mazkur davrda Sadiddin ta‘limoti haqida hech qanday ma‘lumot bo‘lmagan. Olimning ta‘kidlashicha, uning barcha asosiy nuqtai nazarlari tariqat asoschisi Bahovuddin Naqshband ta‘limotiga mos, degan fikr paydo bo‘lishi tabiiydir. Y.E.Bertelsning fikriga ko‘ra, Sadiddin Koshg‘ariy yoshligida barcha fanlarning asoslarini mukammal egallagach, o‘zida darveshlikka nisbatan ehtiyoj sezadi va shayx Nizomiddinga murid tushadi. Keyinchalik u shayx Havofiyning ta‘siri ostida bo‘ladi. Bu erda mazkur ta‘limotni batafsil tahlil qilmasdan, faqat Jomiyning tasavvufiy qarashlarining eng xarakterli xususiyatlarini qayd etamiz. Har qanday usulda naqshbandiylik tarafdorlarining jamiyat va xalq bilan o‘zaro bog‘liqligi, naqshbandiylik tariqati tamoyillari germetizm va asketizmga ashaddiy qarshi bo‘lgan Jomiyga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi.

Tasavvufshunos olim Qosim Ansoriy “Irfon va tasavvuf asoslari” nomli asarida Abdurahmon Jomiy va Bahouddin Naqshbandni eng taniqli oriflar deb tilga olib, ular haqida qisqacha ma‘lumot ham berib o‘tadi. Eronlik taniqli olim Mahmud Obidiy Jomiy qalamiga mansub “Nafohat al-uns”(“Do‘stlik shabadalari”) asarining tanqidiy nashriga yozgan so‘zboshi qismida Jomiyning naqshbandiylik ta‘limotida tutgan o‘rni va Xoja Ubaydulloh Ahrorga Sadiddin Koshg‘ariyning munosabati haqida o‘z nuqtai nazarini bildirib o‘tadi. Ammo naqshbandiylik ta‘limoti va uning nazariy va amaliy asoslari xususida hech qanday fikrlarni ilgari surmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahonda E. Braun, X. Dabashi, X. Masse, A. Muballig‘, J.Y.Ripka, U. Chittik, A. Hikmat, H. Algar, N. Xiraviy kabi olimlarning tadqiqotlari muayyan darajada mutafakkirning falsafiy-tasavvufiy g‘oyalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. I.K.Mirzaev, A.Xayrullaev, N.Komilov, M.D.Pardaeva, Sh.Sirojiddinov, B.N.To‘robov kabi olimlar Y.E.Bertels ilmiy merosini tadqiq etish borasida bir qator ishlarni amalga oshirganlar. Xususan, A.Xayrullaev, N.Komilovlar Y.E.Bertels tadqiqotlarining tasavvuf adabiyoti va

falsafasidagi roli xususidagi qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Asosiy qism. Bahovuddin Naqshbandning tasavvufga oid qarashlari Boyazid Bistomiyning qarashlaridan keskin farq qiladi. U islomning dastabki e‘tiqod doirasiga juda mos keladi. Uning asosiy maqsadi - Muhammad payg‘ambar va uning izdoshlari ko‘rsatmalariga qat‘iy rioya qilishdir. Y.E.Bertels, Jomiyning tasavvuf ta‘limotini to‘la-to‘kis yahshi egallagan shayx bo‘lib etishganligini ta‘kidlab shunday, deb yozadi: ”U qirq ikki yoshida to‘liq mustaqillikka erishgan va etuk shaxs bo‘lib batamom shakllanib bo‘lgan. Naqshband ta‘limoti Jomiyning ikkinchi hayot tarziga aylangani shunga ishora qiladi. Lekin mutafakkir butun umri davomida kishilarning uzlatga chekinishiga jon-jahdi bilan qarshi turgan”.

Sharqshunos olim Naqshbandiylik tariqatini tahlil qilar ekan shunday xulosaga keladi: Bahouddin Naqshband izdoshlari odamlar bilan muloqot qilishdan bosh tortmaganlar. Naqshbandiylik nazariyasi va amaliyotidan ko‘rinib turibdiki, uning ta‘limoti hech qanday tarzda islomga zid emas. Aftidan, naqshbandiylikning bu xususiyati Jomiyni eng ko‘p jalb qilgan bo‘lishi mumkin. Jomiy tasavvufiy dunyoqarashining o‘ziga xos jihati shundaki, u o‘zining badiiy obrazlilik, va ko‘p funksionalligi bilan ajralib turadi. Jomiyning tasavvufiy qarashlarining mohiyati shundaki, inson borlig‘ini Xudo tomonidan yaratilganligi uning sherlarida o‘z aksini topgan. Unda g‘ayritabiiylik va abadiylikning mutlaq cheksizligi, ulug‘vorlik qudrati namoyon bo‘ladi. Olim Y.Odinayevning fikricha, “Jomiy she‘riy va nasriy asarlari shakli adabiy va badiiy, ammo mazmuni falsafiy va tasavvufiydir. Shuning uchun u nafaqat taniqli shoir, yozuvchi, balki ajoyib faylasuf, mutassavvif va ilohiyotshunos hamdir”.

Jomiy tasavvuf nazariyotchisi bo‘lmagan, ammo naqshbandiylik ta‘limoti g‘oyalari ta‘sirida uning asosiy qoidalariga to‘la javob beradigan mislsiz she‘riy asarlar yaratgan. Shu bilan birga, u chuqur falsafiy- tasavvufiy she‘riyatga nazariy qoidalar va tamoyillar bilan emas, balki asarlari bilan kirib keldi. Jomiy uchun adabiyot badiiy-estetik, falsafiy-axloqiy, va ijtimoiy-madaniy maqsadga erishish uchun bir vosita edi. Mutafakkir she‘riyatidan o‘sha davrning eng murakkab falsafiy, estetik va axloqiy muammolarga javob topish mumkin edi. Uzoq vaqtlar mobaynida falsafa va she‘riyat o‘rtasida bir qator qarashlar bo‘yicha tortishuvlar bo‘lishiga qaramay, Jomiy o‘z qobiliyati va mahorati tufayli “haqiqatni bilish” va koinot sirlarini ochib berish uchun she‘riyat hamda falsafa, bilan “hamkorlik” qildi. U uchun she‘riyat falsafaning dastlabki pallasidagi o‘ziga xos umumiy borliqning ostonsi bo‘ldi”.

Naqshband o‘z ta‘limotiga Payg‘ambarning, faqr (ixtiyoriy qashshoqlik) talabini asos qilib oldi. Ammo bu qashshoqlikni birovning hisobidan yashash ma‘nosida tushunmaslik kerak. Bunda faqat o‘z qo‘llari mehnati bilan topilgan mablag‘i hisobidan yashash tushuniladi.

Jomiyning fikriga ko'ra, agar inson o'zi uchun bu dunyo va na u dunyoda hech narsa istamasa, uni "haqiqiy faqr" deb atash mumkin. Jumladan, uning quyidagi fikrlari bunga yaqqol misol bo'la oladi: "...haqiqiy faqr hech narsaga egalik qilmasligi kerak, shunda hech narsa unga egalik qila olmaydi". Faqr boshqa narsaga emas, faqat xudoga muhtojlik sezishdir. Jomiyning tasavvufga oid asarlarida bu masalaga oid ko'p misollar uchraydi. Xuddi boshqa ko'pgina shoirlar kabi, uning uchun ham eng muhim qiymat haqiqatga intilish edi. Aynan haqiqatga intilish ruhi o'ziga xos zaruriy muhitni yaratadi, mutafakkirning tasavvufga oid mafkuraviy qarashlarida asosidan kelib chiqib, haqiqatni islom dini paydo bo'lguncha bo'lgan davr nuqtayi nazaridan balki, o'z davrining yuksak diniy va falsafiy maktablarining nufuzli vakillari asarlaridan va ko'pgina maktablardan izlashga undaydi.

Sharqshunos olim mutafakkir falsafiy-tasavvufiy nazariy qarashlari shakllanishida Ibn al-Arabiyning ta'siri katta ekanligini ta'kidlaydi. Jomiy Ibn al-Arabiyni hayot tarzidagi g'oyaviy qarashlaridagi o'ziga xos falsafiy jihatlarni anglashga intilar edi."Jomiy buni musulmon olamining o'ziga xos siymolaridan biri, mashhur shayx Muhiddin Ibn al-Arabiyning (1165-1240) falsafiy qarashlaridan topdi".

Shayx Muhiddin Ibn al-Arabiyni islom olami tarixida juda boy ilmiy-falsafiy ma'naviy meros qoldirgan mutafakkirdir. Manbalar uning asarlari sonini Jomiy besh yuzdan ortiq deb ko'rsatadi. Ibn al-Arabiyning falsafiy qarashlari uning izdoshlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Buning sababi shundaki, naqshbandiylik tarafdorlari falsafaga doir muammolarni tushunishga va ularga echim topishga moyil bo'lganlar. Shu bois Ibn al-Arabiyning falsafiy qarashlari ular uchun chuqur ma'no kasb etgan. Ibn al-Arabiyning qarashlari bilan hatto saroy ayonlari ham qiziqqanlar. Ibn al-Arabiyning asarlari Jomiy izdoshlari tomonidan chuqur tahlil qilingan va qarashlaridagi ayrim muammoli jihatlari ustida bahs yuritilgan. Jomiy ham aynan ushbu muammolarga o'z munosabatini bildirgan.

Irfon falsafasining yirik vakili Jomiyning falsafiy qarashlari, hanafiya mazhabi ta'siri ostida bo'lib, Ibn al-Arabiyni nazariyalari bilan birga uyg'un holda namoyon bo'ladi. Ibn al-Arabiyning "Vahdat ul-vujud" falsafasiga dastlab e'tibor qilgan shayx, Xoja Muhammad Porso hisoblanadi. U "Fasl ul-xitob" va "Sharhi Fusus ul-hikam" kabi falsafiy asarlarida Ibn al-Arabiyning g'oyalarini tahlil qilgan. Naqshbandiylik tariqatining yirik vakili Xoja Ahror Valiy mazkur ta'limotga o'z e'tiborini qaratib, Jomiyning Ibn al-Arabiyni ta'limotini tahlil qilishga uni atroflicha o'rganishga turtki bo'lgan. Mutafakkir o'zining butun hayoti mobaynida Ibn al-Arabiyni qarashlarini chuqur tahlil qilgan holda, ularni naqshbandiylik tariqati asosida to'g'ri talqin qilishni ta'minlagan.

Ibn Arabiyning asarlarida juda muhim ko'rsatmalar mavjud edi. Jomiyning shogirdi Abdulg'afur Lorining xabar berishicha, shoir bu asarlarni o'rganishga kirishganidan so'ng unga to'liqroq aniqlik kiritish boshladi. Shogirdining so'zlariga ko'ra, Jomiy shunday deydi: "agar bu ilmning eshiklari menga ochilsa, men uni ma'nosini butun olamga ochib beraman". Jomiy Ibn al-Arabiy ta'limotini mukammal o'rganishga kirishgan, ammo buning uchun uchun aftidan uzoq vaqt sarflagan.

Jomiyning tariqatga kirishi uni yaqinlaridan uzoqlashtirmadi. U o'zining asosiy vaqtini asarlari ustida ishlash va shogirdlari bilan muloqotda o'tkazgan. Y.E.Bertels Navoiyning tariqatga kirishi Jomiyning ta'siri ostida bo'lganligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha "Tanishish tez orada chuqur sadoqatga aylanadi va 1476 (77) yilda Navoiy Jomiyga murid tushib, uning rahnamoligida naqshbandiylik tariqatiga kirdi. Bu o'sha davr udumlariga ko'ra, Navoiy o'z ixtiyorini pir qo'liga topshirdi va qolgan umrini uning ta'siri asosida qurish majburiyatini o'z zimmasiga oldi degani emas edi".

Navoiy va Jomiy o'rtasidagi turli mushohada va qarashlarda hamfikir ekanligini tushunishimiz mumkin. Jomiyning tariqatdagi faoliyatini hayotdan uzilish yoki uzlatga kirish tarzida tushunmaslik kerak. Shu bilan birga Jomiyning naqshbandiylikka oid qarashlari uni ijtimoiy hayot tarzidan voz kechishga undamaganligini ta'kidlash zarur. Jomiyning tasavvufiy qarashlari o'ziga xos edi. Shunday qilib, Jomiyning umuman tasavvuf, xususan naqshbandiylikka bo'lgan munosabati "teosofik fikrning muzli cho'qqilari" va "tasavvuf tabiati, Xudo va dunyo haqida nazariy mulohazalar", da adabiy guvohlik shu bilan bir qatorda ko'plab so'fiylarning sirli tajribalari, uning faoliyatining g'oyaviy asosiga aylandi.

Naqshbandiylik ta'limotida falsafiy masalalarga unchalik katta e'tibor berilmagan. Bu ta'limot eng avvalo hayotda asosiy qoidalarni qo'llashga qaratilgan. Jomiyning boshqa mutasavviflardan farqi ham shundaki, u asosan tasavvufning amaliy jihatlariga e'tibor qaratgan. Bizning fikrimizcha, Jomiy oldida tasavvufning amaliy jihatlaridan tashqari, tobora siyosiy tus ola boshlagan naqshbandiylikka falsafiy ruh berish uchun uning ilmiy asoslarini qayta ko'rib chiqish vazifasi turar edi. Y.E.Bertels, payg'ambarning quyidagi so'zlariga ishora qilib, bu yondashuvni tasdiqlaydi: "Xudoga xizmat qilish o'n qismdan iborat bo'lib, ularning to'qqiztasi halollikka amal qilish va bittasi qolgan barcha turlaridir".

Xulosa. Jomiy zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga qat'iy qarshi turgan. Uning fikriga ko'ra, zo'ravonlik nafaqat boshqalar, balki o'ziga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin emas. Jomiy mantiqiy bahslashish orqali tanlov erkinligini himoya qilgan va hamma narsani Xudo oldindan belgilab qo'yganiga ishonganlarga shubha bilan qaragan faylasuflar kabi diniy va falsafiy nuqtai nazarda turgan. Ta'kidlash joizki, adolatli, huquqiy-demokratik davlat barpo

etishda din, e'tiqod qilish erkinligi va milliy qadriyatlarimizning ma'naviyatimizning rivojlanishida dolzarb ahamiyat ega bo'lgan davrda irfon falsafasi va kalom ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan Sharq mutafakkir va faylasuflarining ilmiy-ma'naviy merosi, xususan Jomiyning falsafiy-tasavvufiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy g'oya va qarashlarini o'rganish va bugungi kunga tadbiiq etish muhim ahamiyat egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bertels Y.E. Jomiy. Rus tilidan Ibodulla Mirzayev tarjimasi.-Samarqand:SamDU nashri, 2010,-B.9
2. Qosim Ansoriy. Maboni-ye erfon va tasavvuf. –Tehron: “Tahuriy, 1375: B..176-179.
3. Mavloni Abdurahmoni Jomiy. Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds. – 1370 Tehron. - B.130
4. Bertels Y.E.Navoi.Rus tilidan I.Mirzayev tarjimasi.Samarqand .SamDU nashriyoti . 2010.-C.172.
5. Одинаев, С. Жизнь и творчество Абдурахмана Джами / С.Одинаев // Маърифати Омузгор. - Душанбе, 2014. - № 9/10. - С. 24-27. (на тадж. яз.).
6. Курбанмамадов А. Эстетическая доктрина суфизма (опыт критического анализа). – Душанбе: Дониш. 1987. – С.76
7. Бертельс Е.Э Избранные труды. Навои и Джами. Том. 4. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор Э.П.Рустамов. М. 1965. - С. 59-60.
8. Nuriddin Abdurmoni Jomiy. Lavoyih. Tasheh, muqaddima va tavzehoti Yan Rishar. – Tehron: Asotir, 1373.S.108.
9. Bertels Y.E. Navoiy. Rus tilidan I.Mirzayev tarjimasi. SamDU.2010.-B.173
10. Lārī, Takmila-yi Nafaḥāt al-Uns, P. 17.
11. Bertels Y.E.Navoiy.Rus tilidan I.Mirzayev tarjimasi.Samarqand.SamDU.2010.-B.178
12. Bertels Y.E. Jomiy. Rus tilidan Ibodulla Mirzayev tarjimasi.- Samarqand: SamDU nashri, 2010, – B.10.